Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi Z.A.Teshaboyevning "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish" nomli o'quv qo'llanmasiga

TAQRIZ

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fani uzviyligini ta'minlagan holda Milliy o'quv dasturi ishlab chiqildi hamda yangi zamonaviy darsliklar, o'quvchi mashq daftarlari va pedagoglar uchun o'quv qo'llanmalar yaratildi. Zero, o'quvchi va talabalarning bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni zamon talablari asosida takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridah biri hisoblanadi.

Muallif Z.A.Teshaboyev tomonidan tayyorlangan "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish" nomli o'quv qo'llanma aynan shu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida yaratilgan. Mazkur o'quv qo'llanma texnologiya fani o'qituvchilari va texnologiya fanini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi tinglovchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2020-yil 17-avgustdagi 188-son buyrug'i bilan tasdiqlangan texnologiya fanini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining "Kasb-hunarga yo'naltirish" fani o'quv dasturi va texnologiya fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim Milliy o'quv dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

O'quv qo'llanmada umumiy o'rta ta'lim maktablari texnologiya fani o'qituvchilari va o'quvchilari, texnologiya fanini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi tinglovchilari uchun o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish asoslari, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi, kasblar klassifikatsiyasi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan bo'lib, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayoni va uni tashkil etish, kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish yo'llari, kasb tanlashni rejalashtirish va unga rahbarlik qilish masalalari batafsil yoritilgan.

Bundan tashqari o‘quv qo‘llanma bilan tanishish orqali o‘qituvchi va tinglovchilar ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning zamonaviy usullari, o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish va kasbga tayyorlash metodikasi, o‘quvchilarning qiziqishlar, moyilliklarini o‘rganish va tahlil qilish yo‘llari hamda ularni amalda qo‘llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda, muallif Z.A.Teshaboyev tomonidan tayyorlangan “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish” nomli o‘quv qo‘llanma texnologiya fani o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar, texnologiya fanini o‘qitish huquqini berish bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi tinglovchilari, shuningdek, professor-o‘qituvchilar uchun muhim ilmiy-uslubiy manba va zarur o‘quv adabiyoti bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi ijobiy jihatlarni inobatga olib, ushbu o‘quv qo‘llanmani nashr etishga tavsiya qilaman.

Farg‘ona viloyati PYMO‘MM
“Amaliy fanlar va maktabdan tashqari
ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti **D.X.Mamatov**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIM VAZIRLIGI
FARG‘ONA VILOYATI PEDAGOGLARINI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI
XODIMLAR BO‘LIMI